TIKUV-TRIKOTAJ SANOATIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI	725
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
BURNOUTNING OLDINI OLIH: XODIMLAR SALOMATLIGI STRATEGIYASI	731
Ergasheva E'zoza Dilshod qizi	
O'ZBEKISTONDA KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	736
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA HISOBGA OLIHNING INNOVATSION USULLARI: MENEJMENT VA BUXGALTERIYANING O'ZARO INTEGRATSIYASI	742
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARD A HOLI DAROMADLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	748
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI	754
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ	758
Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umidbek Kamildjanovich	



MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Babadjanov Umidbek Kamildjanovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

“Biznes va boshqaruv” kafedrası o'qituvchisi

Email: u.k.babadjanov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy autsorsing nazariyalari va ularning bozor samaradorligini baholash mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tranzaksiya xarajatlari, agentlik, resurslarga asoslangan va strategik boshqaruv nazariyalari asosida moliyaviy autsorsingning iqtisodiy samaradorligini o'lchash tamoyillari ishlab chiqilgan. Xulosa sifatida ishlab chiqilgan model O'zbekiston Respublikasi moliyaviy xizmatlar bozorining raqobatbardoshligini, shaffofligini va barqaror rivojlanishini ta'minlashda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: autsorsing, moliyaviy autsorsing, autsorsing nazariyalari, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari, moliyaviy xizmatlar, baholash mexanizmi.

Abstract. This article examines the theories of financial outsourcing and the mechanisms for assessing their market efficiency from both theoretical and practical perspectives. The study develops principles for measuring the economic effectiveness of financial outsourcing based on the transaction cost theory, agency theory, resource-based view, and strategic management concept. In conclusion, the proposed model serves as a scientific and practical foundation for ensuring the competitiveness, transparency, and sustainable development of the financial services market in the Republic of Uzbekistan.

Key words: outsourcing, financial outsourcing, outsourcing theories, indicators of economic efficiency, financial services, evaluation mechanism.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теории финансового аутсорсинга и механизмы оценки их рыночной эффективности с научно-теоретических и практических позиций. В исследовании разработаны принципы измерения экономической эффективности финансового аутсорсинга на основе теории транзакционных издержек, агентской теории, ресурсно-ориентированного подхода и концепции стратегического управления. В заключение показано, что предложенная модель служит научно-практической основой для обеспечения конкурентоспособности, прозрачности и устойчивого развития рынка финансовых услуг Республики Узбекистан.

Ключевые слова: аутсорсинг, финансовый аутсорсинг, теории аутсорсинга, показатели экономической эффективности, финансовые услуги, механизм оценки.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish jarayoni o'zaro bog'liq, dinamik va yuqori raqobatli iqtisodiy mexanizmlar tizimi bilan ifodalanadi. Ushbu tizimda har bir xo'jalik subyekti tomonidan qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari nafaqat daromad va xarajatlar nisbatining muvozanatiga, balki resurslardan foydalanish samaradorligining strategik darajasi va institutsional boshqaruv sifatiga ham bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. So'nggi yillardagi amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalar faqat o'z ichki resurslari — mehnat salohiyati, moliyaviy imkoniyatlar va texnik baza — bilan cheklanib qolmayapti. Aksincha, ular tashqi ixtisoslashgan provayderlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ya'ni moliyaviy autsorsing mexanizmlaridan foydalanish orqali faoliyatning iqtisodiy va tashkiliy samaradorligini oshirishga intilmoqda.

Bunday yondashuv korxonalarga operatsion xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirish, risklarni diversifikatsiya qilish hamda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, moliyaviy autsorsing iqtisodiy tizimlarda resurslardan foydalanishning institutsional moslashuvchanligini, raqobat ustunligini shakllantirish va barqaror o'sish strategiyasini amalga oshirish imkonini beruvchi muhim boshqaruv modeli sifatida qaralmoqda.

Mazkur jarayon mohiyat e'tibori bilan korxonalarning ichki potensialini asosiy kompetensiyalar doirasida jamlash va yordamchi funksiyalarni tashqi professional tashkilotlarga topshirish orqali iqtisodiy samaradorlikning yangi paradigmasini shakllantiradi. Natijada, moliyaviy autsorsing bozor mexanizmlari faqatgina operatsion



darajadagi tejamkorlik vositasi emas, balki strategik boshqaruv, innovatsion yangilanish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi konseptual model sifatida namoyon bo'lmoqda. Nazariy jihatdan ushbu yondashuv iqtisodiy adabiyotlarda outsorsing konsepsiyasi sifatida talqin etiladi.

Natijada, moliyaviy outsorsingning iqtisodiyotdagi o'rni bugungi kunda ko'p bosqichli va tizimli xususiyat kasb etmoqda: u nafaqat mikroiqtisodiy darajada (korxona xarajatlarini kamaytirish, moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish va xizmat sifatini oshirish), balki makroiqtisodiy miqyosda ham — milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlash, iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va global me'yorlarga moslashuvni jadallashtirishda — muhim strategik ahamiyatga ega. Shu tarzda, moliyaviy outsorsing nafaqat operatsion samaradorlikni ta'minlovchi vosita, balki innovatsion iqtisodiyot va institutsional transformatsiyaning tarkibiy elementi sifatida namoyon bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi o'n yilliklarda raqamli outsorsing modeli (SAP, Oracle, UiPath kabi platformalar) hamda barqarorlikka yo'naltirilgan outsorsing konsepsiyalari (ESG, GRI standartlari asosida) moliyaviy boshqaruv amaliyotiga yangi paradigma sifatida kirib keldi. Ushbu yondashuvlar korxonalarga moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, real vaqt rejimida KPI ko'rsatkichlarini monitoring qilish va ekologik hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini moliyaviy xizmatlar tizimiga integratsiya etish imkonini berdi.

Shu bilan birga, Teece, Pisano va Shuen 1997-yilda ilgari surgan dinamik salohiyatlar nazariyasi moliyaviy outsorsingning nazariy asosini yanada mustahkamladi. Unga ko'ra, korxona muvaffaqiyatining kaliti — bu bozor o'zgarishlariga tezkor moslasha olish, innovatsion imkoniyatlardan foydalanish va resurslarni qayta konfiguratsiya qilish qobiliyatidir. Ushbu yondashuv outsorsingni kredit, risk-menejment va likvidlik nazorati jarayonlarida operatsion tezlik va moslashuvchanlikni oshiruvchi instrument sifatida asoslab beradi [1].

Moliyaviy outsorsing nazariyalarining metodologik poydevori 1937-yilda R. Coase tomonidan ishlab chiqilgan tranzaksiya xarajatlari nazariyasiga borib taqaladi. Uning "The Nature of the Firm" asarida korxonaning ichki boshqaruv (ierarxiya) va tashqi bozor (market) mexanizmlarini tanlash qarori tranzaksiya xarajatlari darajasi bilan belgilanadi [2].

Keyinchalik O. Williamson ushbu yondashuvni rivojlantirib, outsorsingni eng past tranzaksiya xarajatini ta'minlovchi optimal boshqaruv shakli sifatida izohladi. Unga ko'ra, tashqi xizmatlardan foydalanish samaradorligi korxonaning resurslardan foydalanish, nazorat va bitim xarajatlarini minimallashtirish qobiliyatiga bog'liqdir [3].

1989-yilda M. F. Corbett outsorsing tushunchasiga aniq ilmiy mazmun berib, uni "ilgari korxonaning o'zida bajarilgan funksiyalarni tashqi ixtisoslashgan tashkilotlarga topshirish amaliyoti" sifatida ta'rifladi. Ushbu yondashuv outsorsingni oddiy tashqi xizmat emas, balki tashkiliy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish vositasi sifatida talqin etish imkonini yaratdi [4].

1990-yillarda menejment nazariyasining asoschilaridan biri P. Drucker outsorsing konsepsiyasini strategik boshqaruv falsafasi darajasiga ko'tardi. Uning mashhur "Do what you do best and outsource the rest" degan g'oyasi korxonalarga o'z resurslarini asosiy kompetensiyalarga jamlash, ikkilamchi jarayonlarni esa tashqi professional provayderlarga ishonchli tarzda topshirish zarurligini anglatadi [5].

Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari iqtisodiy amaliyot hamda ilmiy-nazariy izlanishlarning uzviy integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan murakkab evolyutsion jarayonni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyotlarda moliyaviy outsorsing nazariyasining rivoji iqtisodiy tafakkurning turli bosqichlarida yetakchi olimlarning konseptual qarashlari bilan boyigan, amaliyotda esa ularning g'oyalari bozor samaradorligini oshirishga qaratilgan mexanizm va modellar tizimi sifatida namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi moliyaviy outsorsingning nazariy asoslari va bozor samaradorligini baholash mexanizmlarini tizimli, institutsional hamda komparativ yondashuvlar asosida o'rganishga tayanadi. Ishda tranzaksiya xarajatlari, agentlik va resurslarga asoslangan nazariyalar konseptual asos sifatida qo'llanilib, moliyaviy outsorsingning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari statistik, tahliliy va modellashtirish usullari yordamida baholandi. Shuningdek, xalqaro amaliyot va milliy bozor ma'lumotlari kompozit indeks yondashuvi orqali taqqoslab o'rganildi hamda natijalar nazariy umumlashtirish va empirik tahlil asosida ilmiy xulosalarga keltirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozorida mavjud nazariy yondashuvlarning samaradorlik darajasini aniqlash ularning amaliy qo'llanilish imkoniyatini, iqtisodiy ustunliklarini, tashkiliy hamda texnologik afzalliklarini ilmiy



asosda baholashga xizmat qiladi. Har bir nazariya — tranzaksiya xarajatlari, agentlik, resurslarga asoslangan yoki kompetensiya yondashuvi — bozor sharoitida turlicha samaradorlik mexanizmlarini namoyon etadi.

Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozori o'z taraqqiyotida besh asosiy bosqichni bosib o'tgan bo'lib, har bir davr o'ziga xos institutsional shakllanish, texnologik yangilanish va iqtisodiy samaradorlik paradigmasi bilan ajralib turadi. Ushbu bosqichlar moliyaviy boshqaruv tizimining soddalashtirilishidan tortib, sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan kompleks xizmatlar tizimigacha bo'lgan evolyutsiyani ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval. Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozorining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Asosiy xususiyatlari	Ilmiy asos
Boshlang'ich bosqich (1970-1990)	Yordamchi moliyaviy xizmatlar (maosh, hisob-faktura) tashqi firmalarga topshirildi.	Amaliy tajriba, nazariy asoslar shakllanmagan.
Institutsionalizatsiya bosqichi (1990-2000)	Maxsus moliyaviy outsorsing firmalari paydo bo'ldi, hisobot va audit segmentatsiyalandi.	Tranzaksion xarajatlar nazariyasi (Coase, Williamson), RBV (Barney).
Raqamlashtirish bosqichi (2000-2010)	Bulutli buxgalteriya, masofaviy monitoring va IT avtomatizatsiya joriy etildi.	Business Process Reengineering (BPR).
Strategik avlod bosqichi (2010-2020)	BPO va KPO asosidagi kompleks moliyaviy boshqaruv xizmatlari rivojlandi.	Core Competence nazariyasi (Prahalad & Hamel).
Raqamli intellektual bosqich (2020-hozirgacha)	AI, RPA, ESG tamoyillari bilan integratsiyalashgan aqlli moliyaviy outsorsing shakllandi.	Digital outsourcing theory, ESG-based outsourcing, Cost-benefit (Giertl).

Boshlang'ich bosqich moliyaviy outsorsing amaliyotining shakllanish davri bo'lib, buxgalteriya, ish haqi (payroll) va soliq hisobi kabi yordamchi funksiyalarni tashqi tashkilotlarga topshirish bilan tavsiflanadi. Bu jarayonning asosiy sababi korxonalarda hisob-kitob operatsiyalarining hajmi ortib borishi, ichki mehnat resurslari yetishmovchiligi va ma'muriy xarajatlarning ko'payishidir.

Institutsionalizatsiya bosqichi esa outsorsing amaliyotining tizimli iqtisodiy model darajasiga ko'tarilgan davrni ifodalaydi. Maxsus moliyaviy outsorsing kompaniyalari — Deloitte, PwC, EY, KPMG — faoliyat yurita boshladi. Xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS, GAAP) joriy etilishi hamda "shared service center" konsepsiyasining kengayishi natijasida moliyaviy xizmatlar segmentatsiyasi shakllandi.

Uchinchi bosqichda moliyaviy outsorsing raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashdi. Bulutli buxgalteriya, masofaviy monitoring va IT-avtomatlashtirish tizimlari joriy etildi. Internet infratuzilmasining rivojlanishi natijasida xizmatlar global tarmoq orqali boshqariladigan shaklga o'tdi.

Strategik avlod bosqichi outsorsingni operatsion vosita sifatidagi roldan chiqargan holda, uni korporativ strategiyaning ajralmas elementi darajasiga ko'tardi. BPO va KPO yondashuvlari asosida moliyaviy tahlil, budjetlashtirish, nazorat va rejalashtirish funksiyalari tashqi mutaxassislarga ishonchli tarzda topshirila boshlandi.

Hozirgi davr moliyaviy outsorsing evolyutsiyasining eng yuqori bosqichi bo'lib, unda sun'iy intellekt (AI), robotlashtirilgan jarayonlar (RPA), ma'lumot tahlili (Big Data) va barqarorlik tamoyillari birlashtirilgan kompleks yondashuv shakllanmoqda. Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozori evolyutsion bosqichlarda oddiy amaliy tajribadan raqamli intellektual tizim darajasigacha rivojlandi.

Agar dastlabki bosqichlarda outsorsing operatsion xarajatlarni kamaytirish vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda u strategik raqobat ustunligini yaratish, ESG barqarorligini ta'minlash va raqamli innovatsiyalarni joriy etishning asosiy mexanizmiga aylandi. Bozor ishtirokchilarining strategik qarorlarida asosiy mezonlar sifatida xarajatlarni optimallashtirish, vaqt resurslaridan samarali foydalanish, xizmat sifati va shaffoflik darajasini oshirish omillari yetakchi ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sababli, moliyaviy outsorsing nazariyalarining amaliy qiymatini baholashda ularning qo'llanish sohasi, iqtisodiy natijalari, risk va foyda nisbati hamda strategik barqarorlik darajasi kompleks indikatorlar asosida o'lchanadi. Bunday yondashuv moliyaviy outsorsingning nazariy modellari bilan real bozor samaradorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi hamda har bir konsepsiyaning institutsional moslashuvchanligi va raqobatbardoshlik darajasini aniqlash imkonini yaratadi.

Taqdim etilgan model yordamida moliyaviy outsorsing nazariyalarining iqtisodiy samaradorlik darajasi, resurslardan foydalanish koeffitsienti va boshqaruv tejamkorligi miqdoriy ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi. Har bir nazariya o'zining funksional yo'nalishi va amaliy qo'llanish sohasi bo'yicha turlicha iqtisodiy afzalliklarni namoyon etadi.



Tranzaksiya xarajatlari nazariyasi bozor sharoitida outsorsingning iqtisodiy asosini tashkil etib, buxgalteriya va payroll xizmatlarida 30–35% gacha xarajat tejallishini ta'minlaydi. Bu natija ichki va tashqi operatsion xarajatlarni o'rtasidagi tafovut bilan izohlanadi hamda moliyaviy resurslardan foydalanishning optimallashtirilgan mexanizmini aks ettiradi (2-jadval).

2-jadval. Moliyaviy outsorsing nazariyalari va ularning bozor samaradorligi ko'rsatkichlari

Nazariya	Xizmat turi	Samaradorlik (%da)	Ilmiy asoslangan izoh
Tranzaksion xarajatlarni	Buxgalteriya, ilovalar	29–34% xarajat tejalgan	Autsorsga topshirish
Agentlik nazariyasi	Audit-nazorat	24–31% aniqlik va shaffoflik ortgan	Tashqi monitoring vakil muammosini hal qilish
Stratejik nazariya	Budjet, KPI tahlil	32–39% tezkor qaror qabul qilish imkoniyati	Autsorsing strategik darajada samarali
Innovatsion outsorsing	Raqamli texnologiyalar	41–45% texnologik moslashuv	Avtomatlashtirish
Raqamli outsorsing	KPI, RPA, API, AI	45–55% vaqt va mehnat tejash	Avtomatlashtirilgan tizimlar-samaradorligi
ESG asosidagi nazariya	ESG audit hisobot	15–18% ishonchli tahlil	Barqarorlik mezonlari investitsion ishonchi
Dinamik salohiyat	Kredit, risk boshqaruvi	20–25% moslashuvchanlik ortadi	Tizimlar inqirozga bardosh
Tarmoq nazariyasi	Multi-provider servislari	25–30% xizmatlar oralig'i kengayadi	Tarmoqlashgan xizmatlar ko'lamini oshiradi

Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuvning metodologik negizi quyidagi formulada ifodalanadi hamda u moliyaviy outsorsing samaradorligini baholashning matematik modelini aks ettiradi:

$$samaras_{MASB} = w_1 \cdot \frac{X_{ichki} - X_{tashqi}}{X_{ichki}} + w_2 \cdot \frac{I_{in.res.}}{I_{max}} + w_3 \cdot \frac{M_{mod.res.}}{I_{max}} + w_4 \cdot \frac{E_{eko} + E_{boshqaruv}}{2 \cdot I_{max}}$$

Bu yerda, X_{ichki} — xizmatni ichki bajarish xarajatlari; X_{tashqi} — outsorsing orqali bajarish xarajatlari [6]; $I_{in.res.}$ — inson resurslari samaradorlik indeksi [7]; $M_{mod.res.}$ — moddiy-texnik resurslar samaradorlik indeksi [8]; E_{eko} — iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi [9]; $E_{boshqaruv}$ — boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi [10]; I_{max} — maksimal mumkin bo'lgan indeks qiymati; w_1, w_2, w_3, w_4 — samaradorlikka ta'sir ulushini ifodalovchi og'irlik koeffitsiyentlari.

Agentlik nazariyasi outsorsingni tashqi monitoring vositasi sifatida talqin etadi. Uning amaliy natijalari audit va nazorat xizmatlarida 25–30% shaffoflik hamda aniqlikning ortishi bilan ifodalanadi. Resurslarga asoslangan nazariya moliyaviy outsorsingni strategik ustunlikni ta'minlovchi model sifatida ko'rsatadi. Strategik boshqaruv nazariyasi va innovatsion outsorsing yondashuvlari bozor barqarorligining yuqori bosqichida muhim rol o'ynaydi. Ular korxona boshqaruvida 30–45% tezkor qaror qabul qilish samaradorligini ta'minlab, boshqaruv siklini qisqartiradi hamda strategik rejalashtirishni optimallashtiradi. Eng yuqori iqtisodiy natijalar raqamli outsorsing modelida qayd etiladi. Ushbu model AI, RPA, API va KPI texnologiyalarining integratsiyasi orqali 50–60% vaqt hamda mehnat tejallishini ta'minlaydi. ESG yondashuvi va dinamik salohiyat nazariyasi outsorsingning barqarorlik va moslashuvchanlik o'lchovlarini aniqlashga xizmat qiladi. ESG modeli 15–18% ishonchlilikning ortishini, dinamik salohiyat esa 25% gacha moslashuvchanlik o'sishini ta'minlaydi. Bu esa moliyaviy outsorsing xizmatlarining ijtimoiy mas'uliyat, risk-menejment va barqaror moliyaviy tizimlar bilan uyg'unlashuv darajasini ifodalaydi.

Umuman olganda, model natijalari moliyaviy outsorsing xizmatlar bozorida nazariy yondashuvlarning ustuvorlik xaritasini shakllantiradi. Unda raqamli va innovatsion nazariyalar eng yuqori samaradorlikni, tranzaksiya va agentlik nazariyalari esa tejamkorlik va ishonchlilikni ifodalovchi asosiy strategik yo'nalishlar sifatida ajralib chiqadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozorining rivojlanish bosqichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha o'z evolyutsiyasida oddiy yordamchi xizmatlardan strategik boshqaruv mexanizmigacha bosqichma-bosqich yuksalgan murakkab iqtisodiy jarayondir. 1970–1990-yillarda shakllangan boshlang'ich bosqich amaliy tajriba va tashqi buxgalteriya xizmatlarini soddalashtirish bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda outsorsing korporativ moliyaviy tizimning institutsional, raqamli va strategik tarkibiy qismiga aylandi. Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozorining rivojlanishi nazariya va amaliyotning uzviy birlashuvi natijasida vujudga kelgan.

Moliyaviy outsorsing xizmatlar bozorini baholash nazariyasi — bu bozor ishtirokchilarining resurs salohiyati, xizmat sifati, strategik moslashuvchanligi va tashqi iqtisodiy omillar bilan o'zaro ta'sirini kompleks tarzda o'lchashga qaratilgan integratsion ilmiy konsepsiyadir. Ushbu yondashuv bir nechta fundamental iqtisodiy maktablar — tranzaksiya xarajatlari, agentlik, resurslarga asoslangan va strategik boshqaruv nazariyalari — sinteziga asoslanib, moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholashning tizimli metodologiyasini shakllantiradi.

Moliyaviy outsorsingning bozor samaradorligini aniqlashda ichki va tashqi xarajatlar nisbatini baholash, inson kapitali hamda moddiy-texnik baza samaradorligini o'lchash, shuningdek, raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlik omillarini integratsiyalash zarur. Bunday kompleks yondashuv xizmat ko'rsatish jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ta'sirlarning birgalikdagi natijasini aniqlash imkonini beradi. Natijada, moliyaviy outsorsing nazariyalarining uyg'unlashgan baholash tizimi iqtisodiy samaradorlik, innovatsion rivojlanish va strategik boshqaruvni integratsiya qiluvchi ilmiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Teece, D. J., Pisano, G., & Shuen, A. (1997). Dynamic capabilities and strategic management. *Strategic Management Journal*, 18(7), 509–533.
2. Coase, R. H. (1937). The nature of the firm. *Economica*, 4(16), 386–405. <https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.1937.tb00002.x>
3. Williamson, O. E. (1975). *Markets and hierarchies: Analysis and antitrust implications*. New York, NY: Free Press.
4. Corbett, M. F. (1989). *The outsourcing revolution: Why it makes sense and how to do it right*. New York, NY: Dearborn Trade Publishing.
5. Drucker, P. F. (1990). *Managing the Non-Profit Organization: Practices and Principles*. New York, NY: HarperCollins.
6. Deloitte (2022). *Global Outsourcing Survey*.
7. KPMG (2022). *Finance Function Benchmarking Report*. McKinsey (2023). *Strategic Finance Outsourcing Models*.
8. Ernst & Young (2020). *Why ESG Matters in Outsourcing*.
9. Williamson, O. E. (1985). *The Economic Institutions of Capitalism*.
10. Accenture (2023). *Finance Transformation Through Digital Outsourcing*. Gartner Reports (2022–2024).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
